

## SUG'ORILADIGAN YERLARNING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH VA SUV TEJAMKOR SUG'ORISH TEXNOLOGIYALARI

**Abduqahharov Tuychibek Abdumajid o'g'li,  
Soliboyev Saidolimxo`ja Husanxo`ja o`g`li**

Namangan Muhandislik Texnologiya instituti 4-bosqich talabalari

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy ishda sug'oriladigon yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, zamonaviy jihozlarni joriy qilish, melioratsiya va irrigatsiya obekleri tarmoqlarini rivojlantirish, shuningdek suv resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish masalalari hamda sohaga yangi innovatsiya loyihalarini jalb etishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Melioratsiya, Irrigatsiya, Innovatsiya, Modernizatsiya, Konsepsiya, Kollektor, Drenaj.

O'zbekistonda so'ngi yillarda barcha sohalar kabi suv xo'jaligi sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimlarini takomillashtirish, suv xo'jaliklari obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Suv xo'jaligi sohasidagi mavjud muammolar (suv tanqisligi va suv resurslariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, iqlim o'zgarishi, aholi sonining o'sishi, suvga bo'gan talabning oshib borishi) ni aniqlash ularni o'z vaqtida bartaraf qilish va chora-tadbirlar ishlab chiqish anchagina mashaqqatni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi “ O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash” to'risidagi PF-6024-sonli Farmoniga muvofiq tasdiqlangan Konsepsiya sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish va suv

xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha qator dolzarb vazifalar hamda ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan.

Mazkur hujjatda 2030 yilga qadar quyidagi ko'rsatkichlarga erishish ham nazarda tutiladi:

- Sug'orish tizimlarining foydali ish koeffitsiyentini 0.63 dan 0.73 gacha oshirish;
- Suv ta'minoti past darajada bo'lgan sug'riladigon maydonlarini 560 ming gektardan 190 ming gektargacha kamaytirish;
- Sho'rlangan sug'riladigon yer maydonlarini 226 ming gektarga kamaytirish;
- Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi nasos stansiyalarining yillik elektr energiyasi iste'molini 25% ga kamaytirish;
- Barcha irrigatsiya tizimi obyektlariga “Aqlli suv” suv o'lchash va nazorat qilish qurilmalarini joriy etish;
- 100 ta yirik suv xo'jaligi obyektida suvni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish;
- Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suvni tejaydigon texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydoni 2million gektargacha, shu jumladan, tomchilab sug'orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish;
- Suv xo'jaligida davlat xususiy sheriklik tamoyillari asosida 50 ta loyihani amalga oshirish;

Shuningdek Konsepsiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish buyicha 37 banddan iborat bo'lgan «Yo'l xaritasi» va konsepsiyani amalga oshirish natijasida erishadigon asosiy maqsadlar va indikator belgilangan.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash natijasida sohada samarali natijalarga erishildi.

Jumladan, respublikamizda 2020-yilda 133.6 ming gektarda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilindi. Shu tariqa o'tgan yillar davomida tejamkor texnologiyalari joriy qilingan yerlar 291.2 ming gektarga yetkazilib, jami sug'oriladigon yerlarning 7% ga yaqinini tashkil qilmoqda.

Shuningdek, 43 ming 40 gektar, shundan 20 ming 650 gektar paxta maydonlarida tomchilatib sug'rish, 4 ming 249 gektar maydonda diskrit (pulsar) sug'orish texnologiyasi qo'llanilgan bo'lsa, 84 ming 162 gektar maydonda ko'chma eguluvchan quvurlar orqali sug'orish ishlari amalga oshirilgan.

Respublikamizda o'ziga xos suv xo'jaligi tizimi barpo qiligan bo'lib, uning maqsadi iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, qishloq xo'jaligini suv bilan ishonchli ta'minlash, shuningdek, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan. Hisobga ko'ra, sug'oriladigon yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun umumiy uzunligi 142.9 ming km, shundan 106.2 ming km ochiq va 36.7 ming km yopiq gorizontal yopiq kollektor – drenaj tarmog'i, shuningdek, 172 ta miliorativ nasos stansiyasi, 3827 ta vertikal drenaj quduq ishlatilmoqda. Paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarining yana bir katta ulushi nasos stansiyalarini faoliyatini ta'minlab beruvchi elektr energiya xarajatlari hisoblanadi. Hisobga ko'ra, suv resurslarining nomutanosib taqsimlanishi va sug'oriladigon yerlarning murakkab relefga ega ekanligi natijasida sug'oriladigon yerlarning 60% ga yaqin qismiga 1687 ta nasos stansiya yordamida suv yetkazib berilib, ularning yillik elektr energiyasi iste'moli 8 mlrd kv.tsoatni tashkil etadi. 2.5 million gektar maydonni sug'orish uchun 2.4 trln.so'm byudjet mablag'lari sarflanmoqda. Bir gektar maydonga suvni nasoslar orqali yetkazib berish uchun byudjetdan o'rtacha 800 ming so'm xarajat qilinyapti. Egatlab sug'orish oqibatida yiliga qariyb 5-6 milliard metr kub yoki 20% suv dalada behuda sarflanmoqda. Bu muammoni hal qilish maqsadida energiya samarador texnologiyalarni joriy qilish va tarmoqda energiya sarfini kamaytirish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda suvdan foydalanish koeffitsiyentini yanada oshirishda irrigatsiya tarmoqlaridagi yo'qotilgan suv miqdorini kamaytirish, buning uchun esa sug'oriladigon yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, irrigatsiya – melioratsiya obyektlarini rekonstruksiya qilish va ta'mirlash – tiklash hamda suv tejoychi texnologiyalarni keng qo'llash zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

1. [https:// review.uz](https://review.uz)
2. [https:// www.lex.uz](https://www.lex.uz)
3. [https:// dd.gov.uz](https://dd.gov.uz)